


Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2020-yil yanvar-mart dastlabki ma'lumot)

Jizzax viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi yanvar-mart oylarida 2174,7 ming so'mni tashkil etdi va buni viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida 2757,9 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 126,8 %), Arnasoy tumanida 2072,5 ming so'mni (95,3 %), Baxmal tumanida 2050,5 ming so'mni (94,3 %), Zomin tumanida 2022,2 ming so'mni (93,0 %), Do'stlik tumanida 1933,5 ming so'mni (88,9 %), Mirzacho'l tumanida 1920,1 ming so'mni (88,3 %), Sh. Rashidov tumanida 1857,1 ming so'm (85,4 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, % da
(2020-yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlarisiz)



Jizzax viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	O'sish sur'ati, %
Jizzax viloyatida	1770,7	2174,7	122,8
Jizzax shahri	2184,4	2757,9	126,3
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1702,5	2072,5	121,7
Baxmal	1785,7	2050,5	114,8
G'allaorol	1540,3	1761,8	114,4
Sh. Rashidov	1734,7	1857,1	107,1
Do'stlik	1556,9	1933,5	124,2
Zomin	1691,0	2022,2	119,6
Zarbdor	1189,2	1905,6	160,2
Zafarobod	1464,3	1842,3	125,8
Mirzacho'l	1573,8	1920,1	122,0
Paxtakor	1510,9	1910,2	126,4
Forish	1412,3	1712,9	121,3
Yangiobod	1417,0	1881,3	132,8

- **Sanoatda** oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2445,2 ming soʻmga toʻgʻri keldi va 2019-yilning shu davri bilan taqqoslaganda 30,8 % ga oshdi.



- **Qurilish sohasida** oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1943,6 ming soʻmga toʻgʻri keldi va 2019-yilning shu davri bilan taqqoslaganda 20,3 % ga oshdi.

- **Savdo sohasida** oʻrtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2733,1 ming soʻmni tashkil qildi va 2019-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 18,5 % ga oshdi.



- **Tashish va saqlashda** oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1660,9 ming soʻmni tashkil qildi va 2019-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 8,8 % ga oshdi.

Axborot va aloqa sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2350,7 ming soʻm ga toʻgʻri keldi va 2019-yilning shu davri bilan taqqoslaganda 20,6 % ga oshdi.



➤ **Moliya va sugʻurta** faoliyati sohasida oʻrtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 5517,2 ming soʻmni tashkil qildi va 2019-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 69,4 % ga oshdi.



➤ **Taʼlim sohasida** oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2057,4 ming soʻmni tashkil qildi va 2019-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 18,4 % ga oshdi.



➤ **Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1747,9 ming soʻmga toʻgʻri keldi va 2019-yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 23,8 % ga oshdi.




➤ **San'at, ko'ngil ochish va dam olish** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2275,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2019-yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 8,5 % ga pasaydi.



➤ **Boshqa faoliyat turlari** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2274,2 ming so'mga to'g'ri keldi va 2019-yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 23,0 % ga oshdi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqinin iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2020-yil yanvar-mart oylarida, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlarisiz)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining

Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2020-yil 1-fevraldan 679330,0 so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi**

(72) 221-51-19